

DILIMNIOG'RITGANDILOZORLARIM

FarangizFazo

Bilmaysizto'kilganjolalarimni,
Robbiomadardlashgannolalarimni.
Atay chertgay sabr tolalarimni,
Dilimni og'ritgan dilozorlarim.

Ne foyda tuxmat-u, yomonni so'zlab,
Rostdan yiroq bo'lgan yolg'onni so'zlab.
Menga qabr qozib, so'ng qasr ko'zlab,
Dilimni og'ritar dilozorlarim.

Birni ming bo'rttirib ayting onamga,
Pushaymon mushtlari tegdi zonamga.
Faqat ozor berma tegma bolamga,
Dilimni og'ritgay dilozorlarim.

Qalb Ka'ba faryodi ko'kka yetgaydir,
Kim oldin, kimdir kech, bari ketgaydir.
Shunda farishtalar barin aytgaydir,
Dilimni og'ritmang dilozorlarim.

Asablar ketgaydir yetsa ham bardosh,
To'lgaydir, singaydir sekin sabrtosh.
Shirin so'z, mehrga erur qalb talosh,
Dilimni og'ritgan dilozorlarim.

Yoddadur sotqinning xiyonat kuni,
Ko'ksimga o'q otgan jinoyat kuni.
Hisobni qoldirdim qiyomat kuni,
Dilimni og'ritgan dilozorlarim.

Dunyolar hayrati O'zbekistonim

Baxting ko'rolmagan, qalbi so'qirlar,
Nomingni qoralab, g'iybat to'qirlar.
Bag'ringda ilondek suyib, suykalib,
Lek qo'yib bersang gar ko'zing cho'qirlar.

Sabr-u bardosh ila go'lib mardonim,
Osiyo savlati O'zbekistonim.
Qaldirg'ochga eshikdir, peshtoq ayvoni,
Navoiyni lol qoldirgan Samarqand noni.
Tunni-tun demasdan sho'r terga botib,
Ketmonin qo'lga olib ishlar dehqoni.
Bug'doy hidi kezgan, dala xirmonim,
Paxtadek kumushim, O'zbekistonim.

Toshdan-toshga urgan, suvlaring zilol,
Sirdaryo qovuni til yoruvchi bol.
Sen-la sajdadaman to o'lgunimcha,
Gar xohlasang turay misli majnuntol.
Iymonin but qilgan Parvardigorim,
Qur'oni Karimdir O'zbekistonim.

Jaloliddin tulporida yovni haydagan,
Alpomishi nayzasida tog'ni ag'dargan.
Shiroqing qulog'-u burnidan kechdi,
Temuring tinchlikdan bayroq qadagan.
Pahlavon Mahmuddek mard-u maydonim,
Kuragi yer ko'rmas O'zbekistonim.
Termiziy, Buxoriy bizda tasviri,
Qodiriy qatag'on bo'ldi asiri.
Shoh Bobur qurdirgan Tojimahal ham,
Qonli kunlarimiz so'zlar har biri.
Goh baland, pastlikdan oshgan dovonim,
Istiqlol cho'qqisi O'zbekiston.

Tasavvuf sultoni Najmiddin Kubro,
Tabobatda dunyoni lol qildi Sino.
O'g'il-qizing izing davomchisidir,
Sizni yod etmasam bo'lgaydir xato.
Daholar eshigi hur oshiyonim,
Yevropa hayrati O'zbekistonim.

Alp yigiting belda belbog', boshda do'ppisi,
Qirq kokilli go'zal qizlar hayo belgisi.
Jannat iforidek aziz mo'tabar,
Har tomoning bihishtdayin go'dakning isi.

Keksalari ila fayzli,nurli makonim,
Pirlar yotgan beshik O'zbekistonim.
Ringda raqibin yer tishlatgan o'g'lon,
Bugun bayrog'ingni ko'tarar osmon.
U asli o'zbekdir,u bizning o'zbek,
Ko'zida yosh qalqir qalbdada hayajon.
O'ttiz ikki yosh,qutlug' davronim,
Hizr nazaridir O'zbekistonim.

Yurtim egasidir misli avliyo,
Ozodlik,tinchlik rost,emasdir ro'yo.
Dardingga malhamdir,baxtingga sherik,
Istiqlol farzandi Farangiz FAZO.
SHu kunga yetkazgan ming bir imkonim,
Biz yoshlar qanoti O'zbekistonim.

Qora tuproqdir

Goh sinsang saloming qolar bealik
Yuzga niqob kiygan, jirkanch soxtalik
O'z do'sting joningni qilganda tilik
Nokasning o'ylagan o'yi tuzoqdir
Har inson manzili, qora tuproqdir
Doimo shukurda dil-u zaboni
Yo`q bo`lsa chidaydi yarimta noni
Allohning yonida pokdir iymoni
Nomayi amolida savob ko`proqdir
Har banda manzili, qora tuproqdir

Gohida otani qildik behurmat
Goh bo`ldi onamiz duosi omad
Zaif ayollarga yog`dirdik tuxmat
Ammo oy ularga yo`lchi chiroqdir
Har banda manzili, qora tuproqdir

Er yigit nomusi qayoqda qoldi
G`arbga taqlid qilib hayo yo`qoldi
Tizzalar bir qarich ochilib qoldi
Terilgan qoshlarning bari so`roqdir
Har inson manzili, qora tuproqdir

G`iybatdan tilimiz aslo tiymadik
Yolg`onni boyladik, hazar qilmadik
Ro`za, ibodatga nazar qilmadik
Bugun kalimalar tildan yiroqdir
Har banda manzili, qora tuproqdir

Ko`paydi dabdaba, isrofgarchilik
Yo`qoldi oqibat, odamgarchilik
Mayxo`rlik ulfati bugun ko`pchilik
Gar ortga qaytmasang yo`ling botqoqdir
Har inson manzili, qora tuproqdir

Odam qadrin bilmas ul odamfurush
Go`dak qonin to`kib, bo`ldi kayfi hush
Begunohlar orzusi, bo`lib qoldi tush
Vahshiyalar mozori tikan, toshloqdir
Borar makoningiz azob qiynoqdir
Har inson manzili, qora tuproqdir

Umr yakuni

Nogaxon, quladi tog`lar qoyasi,
Qaxraton sovuqdan muzladi olam.
So`ramay kelarkan ajal soyasi,
Qay zamon ketishin bilmaskan odam.

Shunday sovuq kunning, sovuq tunida,
Telefon jiringlar, tinmay dam – badam.
Ko`tarsam; qaltiroq ovozi bilan,
“Akangdan ayrildik” deb yig`lar otam.

Kimga kerak bo`ldi bu shirin joning,
Bu xolga kim soldi, qay bir dilozor.
Hammadan qizg`ongan suyukli yoring,
Sog`insa qidirib bormoqda mozor.

Nahot o`ylamading xasta onamni,
Otam qaddi bukik, yurak bag`ri qon.
Meva tugmay to`kdi, daraxt yaprog`in,
Ketdingku o`zingdan qoldirmay nishon.
Diydor ko`rishmoqlik etmadi nasib,

Shu dard azobidan ukang ezildi.
Qiyndi uni ham musofirchilik,
Ko`zidan yoshlari duv – duv tizildi.

Tirikchilik deya baxtli oningda,
To`yingda xizmating qila olmadi.
So`ngi manzilga ham ketar chog`ingda,
Yo`l olis, ulgurib kela olmadi.

Shirin xotiralar eslashib bir-bir,
Ammalar dod solar, yig`lar xolalar.
Meva-yu shirinlik berganlaringni,
Yod etib yig`ladi qo`shni bolalar.

Uyga borar bo`lsam yarim jon bilan,
Xidingni, mehringni topmay qaytaman.
Jiyanlaring “tog`a” deb so`roqlab qolsa,
Ularga ne deyman, ne deb aytaman.

Kel aka ketamiz bolalik tomon,
Yashaylik tashvishsiz go`zal davrda.
“Qizi” deb atashing sog`indim yomon,
Ko`z yoshim to`kaman endi qabrda.

Aka esingdami nedan siqilsam,
“Yig`lama, qalqondek akang bor” derding.
Xayot sinovidan toyib yiqilsam,
Suyanchig`im bo`lib, qo`lga qo`l berding.

Opam, singlim yo`q deb nolimas edim,
Tog`dek akam bor deb ko`nglim to`q edi.
Meni sog`inganda uyimga kelib,
Xolimni so`rovchi akam yo`q endi.

Akam q`oli ochiq, edi pok, sodda,
O`zgalar ozori qolmasdi yodda.
Gunohlarin kechir, rahm et yo Rab,
So`rayman tilovat etib bomdodda.

Besh kunlik bu dunyo, bir kam bu dunyo,

Nokas-u nodonga bo`lgan jam dunyo.
Sherga qopqon qo`ygan, qo`rzoq itlarni,
Qilmishin o`ziga "Qaytar" bu dunyo.

Validamni asra hayot

Darddan to`lib, baxtdan to`yib kulolmading,
Odamdayin davr-u davron surolmading.
Tashvishlardan nari ketib loaqal bir,
Davralarda yayrab, quvnab yurolmading.

Qushdek uchdim bag`ringdana qanot qoqib,
Ortginamdan yig`lab qolding yoshla boqib.
Ota uyda erkaliklar, sho`x bolalik,
Bir zum o`tdi xayolimdan seldek oqib.

Senga atab xushbo`y gullar terolmadim,
Bemor bo`lsang dardlaringni ololmadim.
Sochlaringni silabgina yotgan o`shal,
Yostiqdayin mehrniyam berolmadim.

Kunda bir bor, gar qo`ng`iroq qilolmasam,
Uxlolmayin xuftongacha kutting yana.
O`zing bemor bo`la turib, bolam senga
Ne bo`ldi deb necha g`amlar yutting yana.

Aytolmagan hasrating qalbingda ming oh,
Koringga yarolmasam yarim ko`nglim dog`.
O`zim o`ylab yuraverib, sezmay qolibman
Seni g`amlar qaritdi, qaritdi ne chog`

Ko`nglimga qaraguvchi beminnatginam,
Yo`lingga qaraguvchi g`animatganim.
Kelarni ketari bordir har boshda,
Bu dunyoda mehmonim, omonatginam.

Yig`layman, yig`layman, yig`layman dod deb,
Validamni avayla, asra hayot deb.
Eshikka ko`z tikib, kutgan onangni,
Bir oyda bir bora etib tur yod deb.